Tadqiqotchi X.Alimovaning tahlillariga ko'ra, mustaqil Afg'oniston tarixida 8 marotaba (ba'zi manbalarda 10 ta) Konstitutsiya qabul qilingan bo'lib, 1923-yil Amir Omonullaxon (1919-1929 yy.) va 1931-yil Nodirshoh (1929-1933 yy.) hukmronligi davrlaridagi Konstitutsiyalarda davlat tili haqida moddalar kiritilmagan. 1964-yil Muhammad Zohirshoh (1933-1973 yy.) hukmronligi davrida qabul qilingan Konstitutsiyada pashtu va dariy tillari rasmiy davlat tillari sifatida belgilanadi. Muhammad Dovud tomonidan Afg'oniston Respublika deb e'lon qilingandan so'ng qabul qilingan 1976-yilgi Konstitutsiyada ham xuddi shu ikki til davlat tili sifatida ko'rsatiladi. 1980-yil Afg'oniston Demokratik Respublikasi tomonidan Babrak Kormal rahbarligida qabul qilingan beshinchi Konstitutsianing 40-moddasida davlat tili masalasi quyidagicha ifodalangan: "Revolyutsion Kengashning qonunlari va farmonlari pashtu va dariy tillarida chop qilinadi va ularni Afg'onistonning boshqa xalqlari tillarida nashr etish mumkin." Ko'ramizki, bu yerda rasmiy hujjatlar pashtu va dariy tillarida qabul qilinishi ta'kidlansada, Afg'onistonda mavjud boshqa xalqlar tillariga o'girilib nashr etilishi mumkinligi aytilmoqda (shu jumladan o'zbek tilida ham) [2, B.22-29]. Bu vaqtga kelib mamlakatda yashovchi boshqa millatlar tillarida ham rasmiy nashrlar faoliyat yurita boshlagan edi. Konstitutsiya moddasining bu tarzda talqin etilishidan maqsad rasmiy e'lon qilingan hujjatlar mazmunini ushbu nashrlar orqali barcha xalqlarga yetkazib borish ko'zlangan deyishimiz mumkin.

1987-yil Doktor Najibullo davrida qabul qilingan Konstirutsianing 8-moddasida: "Mamlakatdagi milliy tillar orasida pashtu va dariy rasmiy tillardir" — deyilgan. Bunda "milliy til" va "rasmiy til" o'rtasida farq vujudga kelgan. Unga ko'ra Afg'onistondagi barcha tillar "milliy" va bular orasida pashtu va dariy "rasmiy til" hisoblanadi. Bu yerda mamlakatdagi boshqa tillar bilan birga o'zbek tili ham Afg'onistonning "milliy tili" deb hisoblanishini ko'ramiz. Hozirgi vaqtida Afg'onistondagi tillarning maqomi 2004-yil 4-yanvarda Loyi Jirg'a tomonidan qabul qilingan va Afg'oniston prezidenti Hamid Karzay tomonidan rasmiy imzolangan Konstitutsianing 16-moddasiga muvofiq belgilab qo'yilgan. Jumladan, ushbu modda quyidagicha ifodalananadi: "Pashtu, dariy, o'zbek, turkman, pashayi, nuristoniy, pomiriylar tillar va mamlakatdagi boshqa tillar orasida pashtu va dariy davlatning rasmiy tillaridir.

Aksariyat aholi o'zbek, turkman, pashayi, nuristoniy, baluj va pomiriylar tillarida so'zlovchi rayonlarda, o'sha til pashtu va dariy tillari bilan bir qatorda uchinchi rasmiy tildir va uning tatbiqi qonun orqali tartibga solinadi.

Davlat Afg'onistondagi barcha tillarni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan samarali dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Mamlakatdagi barcha tillarda matbuot nashri va ommaviy axborot vositalari erkindir.

Mamalakatdagi mavjud ilmiy va milliy ma'muriy terminlar saqlanib qoladi." [2, B.22-29]

Ushbu moddaga ko'ra, pashtu va dariy tillariga rasmiy davlat tili maqomi berilgan. Shuningdek, o'zbek, turkman, pashayi, nuristoniy, baluj va pomir tillarida so'zlashuvchi aholi zich yashaydigan mintaqalarda qayd etilgan tillar ham uchinchi rasmiy til maqomida ekanligi qonuniylashtirilgan. Ushbu tillarning rivojlanishi uchun davlat mas'ul bo'lib, dastur ishlab chiqilishi, shuningdek, matbuot nashri va ommaviy axborot vositalari uchun ham hech qanday cheklolvar yo'qligi belgilangan.

Asosiy Qonunning 43-moddasida: "...Davlat har bir hududda so'zlashadiganlar uchun Ona tilida o'qitish sharoitini yaratadi" – deyilgan jumlalar esa mamlakatdagi turli millatlarning o'z tillarida ta'lif olish imkoniyatini ham yaratib beradi[9]. Albatta, 16-moddaning oxirgi bandidagi "ilmiy va milliy ma'muriy terminlar saqlanib qolishi" va uchinchi rasmiy tillarga o'zgartirilmasligi qoidasi hamda 20-moddadagi "Afg'oniston davlat madhiyasi pashtu tilida va "Allahu akbar" hamda Afg'oniston xalqlarining nomlari bilan aytildi." – degan jumlalar ma'lum ma'noda mamlakatda pashtu tilining ustunligini ko'rsatuvchi hisoblanadi[2, B.22-29]. Shunday bo'lsada o'zbek tilining ham rasmiy davlat tili maqomini olishi va mamalakatning Bosh Qomusi – Konstitutsiyada belgilab qo'yilishi afg'on o'zbeklari uchun ulkan yutuq sifatida ko'rishimiz mumkin.

Ma'lum millatga tegishli tilning davlat tomonidan qonuniy asoslanishi, tilning jamiyatda faqat og'zaki yoki oila tili darajasida qolib ketmasdan, ta'lif tizimi, matbuot nashrlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa shu kabi xalqning ijtimoiy-madaniy hayotidagi muhim sohalarda faol qo'llanilishi ushbu tilni rivojlantiradi va yashovchanligini oshiradi. Shuningdek, millatni birlashtiruvchi, o'zligini tanituvchi vosita ham hisoblanadi. Bu jihatlarni biz Afg'oniston o'zbeklarining ijtimoiy-madaniy hayotida ham ko'rishimiz mumkin.

XX asrning 60-yillarida Afg'onistonda chuqur islohatlar davri boshlandi. Garchi Konstitutsion-monarxiya shaklidagi mamlakat bo'lishiga qaramasdan 1964-yil qabul qilingan Konstitutsiya Afg'onistonda ancha liberal va demokratik islohotlarga yo'l ochdi. Bu esa jamiyatda turli ijtimoiy, siyosiy-huquqiy qarashlar o'sishiga, aholining faol qatlamlari o'rtasida hamda o'zligini saqlash harakatidagi millatdoshlarni birlashtirgan milliy uyushma, jamiyat va tashkilotlar yashirin yoki ochiq ko'rinishda tashkil etilishiga olib keldi.

Xuddi shunday jamiyatlardan biri 1964-yilda Kobul shahrida tashkil etilgan tarkibida asosan muhojir o'zbeklarni birlashtirgan shoir Shog'ulom Ahmadiy boshchiligida she'riyat ixlosmandlarining kichik guruhi hisoblanadi. Vatanparvarlik she'rlari "Oydin" gazetasida (O'zbek "Vatan" jamiyatining nashri, 1968-yildan nashr etila boshlangan[10]) chop etilgan bu guruh a'zolari asosan, boy va nufuzli kishilar galma-galdan ulardan birining uyida to'planib, bahs-munozara va she'riyat kechalari o'tkazishgan. Bu guruh rasman ro'yxatga olinmagan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ushbu jamiyat keyinchalik, O'zbek "Vatan" jamiyat, Afg'oniston Maorif vazirligining O'zbek tilini va adabiyotini o'rganish markazi bilan keng aloqalar olib bordi[11]. Afg'onistonning shimolidagi aholini birlashtiruvchi jamoat tashkilotlaridan yana biri 1980-yilda O'zbek "Vatan" jamiyat yordamida tashkil etilgan Afg'on "Vatan" jamiyat hisoblanadi. Tarkibini asosan muhojir o'zbeklar tashkil qilgan. Ushbu jamiyat Afg'onistonda rasman faoliyat yuritgan[11]. Yana bir shunday uyushma – Turkiy tilli yoshlarning "Oydin" uyushmasi hisoblanadi. Uyushmaning markazi Kobulda joylashgan. Ushbu uyushmaning asosiy maqsadi Afg'onistondagi turkiy tilli yoshlar orasida madaniy-ma'rifiy faoliyatni targ'ib etib, yoshlarning ta'lif olishiga imkon yaratish hisoblangan. Uyushmani Turkiya Respublikasi

qo'llab-quvvatlaydi. "Oydin" uyushmasining Tahor, Mozori-Sharif, Saripul, Andxo'y va Maymana kabi shimoliy viloyatlarda bo'limlari ham tashkil etilgan edi[12, B.47-48].

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan asrning 50-yillari o'rtalarida Afg'onistonning o'zbeklar yashaydigan viloyatlarda atigi 95 ta boshlang'ich maktab faoliyat ko'rsatgan. Ulardan 42 tasi shahar (40 tasi o'g'il bolalar uchun va 2 tasi qiz bolalar uchun), ular 6 yil o'qigan va 53 tasi qishloq maktablari (barchasi o'g'il bolalar uchun) bo'lib, o'qish muddati 3 yillik bo'lgan. Bu maktablarda o'qitish o'zbek tilida emas, balki dariy va pashtu tillarida olib borilgan.

Afg'onistonning shimolidagi o'zbek oilalaridagi o'g'il bolalar (milliy ozchilikdagi qizlar uchun bu mutlaqo istisno qilingan) o'rta va maxsus (va ayniqsa oliy) ma'lumotni faqat Kobulda yoki boshqa yirik shaharda olishi mumkin edi. Bu faqat aholining boy va o'ziga to'q qatlamlarigagina nasib qilishi mumkin edi[20, B.118].

Afg'oniston ta'lim tizimida 1978-yil aprel (Savr) voqealaridan keyin o'zbek bolalari va yoshlari o'zbek tilida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lib, o'zbek tilidagi maktablar va oliy ta'lim tizimida O'zbek tili fakultetlari ochila boshladi. Jumladan, O'zbek "Vatan" jamiyati tomonidan Afg'oniston Maorif vazirligi huzurida tashkil etilgan "O'zbek tili va adabiyotini o'rganish" Markaziga yordam sifatida Afg'onistonga katta hajmdagi o'quv-metodik adabiyotlar yuborildi. Afg'oniston Maorif vaziri o'rinnbosari Abdulqayum Nurzayning Jamiyatga yo'llagan maktubi amalga oshirilgan ushbu ishlar Afg'on hukumati tomonidan yuksak baholanganidan darakdir[13]. Ushbu o'quv-metodik adabiyotlar tarkibida 1-sinfdan 10-sinfgacha o'zbek tilidagi darsliklar bo'lib, ular afg'on maktablari uchun o'zbek tilidagi darsliklarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. 1979-1980-yillarida boshlang'ich sinflar uchun bir qator darsliklar nashr etildi[11]. Ammo Afg'onistonga yuborilgan ushbu adabiyotlarni qayta ishlab, afg'on o'zbeklari bolalari uchun barcha fanlarni moslashtiradigan (yuborilgan darsliklar asosan kirill alifbosida bo'lgan shuning uchun ularni arab alifbosi asosidagi o'zbek alifbosiga o'girib qayta ishslash zarur edi- N.X.) va yangi adabiyotlar yaratadigan mutaxassislar ham, o'zbek tilida dars beradigan fan o'qituvchilari ham yetishmas edi.

O'zbekistonda o'zbek filologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan afg'onistonlik Omidulloh Bayoni ushbu holatlarni tahlil etib quyidagi fikrlarni bildiradi. "O'zbek tili mutaxassislari bo'lmagani uchun, bolalar oltinchi sinfga yetganda ham darsliklar uchinchi-to'rtinchi sinfdan o'ta olmadi, shunday bo'lsada ona tili darsligi sakkizinch sinfgacha tayyorlangan. O'zbek xalqi farzandlarining bunday taqdarsizligini ko'rib, bolalarini o'zbekcha maktablardan dariy va pashtu tilidagi maktablarga ko'chirishga majbur bo'ldi. 1992-2004-yillarda Afg'oniston Islom Respublikasi va Tolibonning birinchi hukmronligi davrida ta'lim va tarbiya tizimi tubdan o'zgartirilib, o'zbek tilida ta'lim olish to'xtatilgan bo'lsada, biroq o'zbek tili kafedrasи butunlay chiqarib tashlanmagan, faqat faoliyati sekinlashtirilgan. 2004-yil Afg'oniston Maorif vazirligi chorsho'basida o'zbek tili kafedrasи qayta tiklandi. Biroq bu safar o'zbekcha maktablar emas, balki o'zbeklar yashaydigan hududlarda o'zbek tili alohida fan sifatida o'tiladigan bo'ldi. Bu davrga kelib, o'zbek tili darsliklari 12-sinfgacha (Afg'oniston maktablarida 12 yillik ta'lim shakli bo'lib, 1-sinfdan 6-sinfgacha boshlang'ich davr, 7-sinfdan 9-sinfgacha o'rta davr va 10-sinfdan 12-sinfgacha esa lisa (oliy) davrlardir) tayyorlangan bo'lib, o'zbeklar yashaydigan hududlardagi maktablarda "O'zbek tili darslik kitobi" nomi ostida O'zbek tili va adabiyoti o'rgatilmoqda. Afg'oniston viloyatlarining 7 oliy ta'lim muassasalari (Kobul, Balx, Faryob, Juzjon (Javzijon), Taxor, Bag'lon va Saripul universitetlarida[9]) va 10 dan ortiq muallim tayyorlash (o'qituvchilar malakasini oshirish) institutlarida O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи

mavjud. Afsuski oliy ta'limgan bo'yicha rasmiy o'quv qo'llanmalar chop etilmagan. Barcha universitet va institutlarda O'zbekistonda chop etilgan kitob va o'quv qo'llanmalar o'zbek kirill va lotin alifbolaridan arab alifbosiga o'girilib, darslik sifatida dars berilmoqda”[14, B.201]. Afg'onistonda ta'limgan tizimida umumafg'on o'zbeklari uchun ma'lum ijtimoiy-siyosiy sabablar tufayli yagona adabiy tilning shakllanmagani ham o'zbek tili grammatikasiga oid yangi darsliklar yaratishda muammo tug'dirmoqda[15, B. 22-28]. 1982-yili Kobulda Afg'oniston Fanlar Akademiyasi tashkil etildi. Akademiya qoshida Til va adabiyot va ijtimoiy fanlar instituti tashkil topdi. Bu institutda Afg'onistondagi barcha yirik tillarda yaratilgan xalq og'zaki ijodi, mumtoz va hozirgi zamon adabiyoti, alohida yirik adib va shoirlar ijodiyotining o'rganilishi yo'lga qo'yildi[4, B.19]. Fanlar Akademiyasi muxbir a'zoligi uchun o'tgan 1986-yilgi saylovda o'zbeklardan Yoqub Vohidiy domla muhbir a'zo sifatida saylangan[12, B.46-47].

Ma'lum bir tilning jamiyatdagi nufuzi va barqarorligini ta'minlovchi omillardan yana biri bu matbuot hisoblanadi. 1978-yil aprel voqealaridan 21 kun keyin Mozori-Sharif viloyatining markazi Balx shahrida Abdulloh Ruyin muharrirligida o'zbek tilida “Yulduz” gazetasi chop etildi (Ba'zi manbalarda “Yulduz” gazetasi Kobulda tashkil etilgan va shimolga yetkazib berishning murakkabligi bois Mozori-Sharifga ko'chirilgan, asoschisi Afg'onistonning sobiq adliya vaziri va bosh prokurori professor Abdulhakim Shar'iy Juzjoniy hisoblanadi[12, B.48-49]. Gazeta dastlab, Muhammad Amin Uchqun so'ngra Oyxon Bayoni va Abdulloh Ruyinlar tomonidan boshqarilgan[9]). “Yulduz” gazetasi hazrat Alisher Navoiyning “Odamiy ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami” misralari shiori ostida nashr qilingan. Gazeta 7300 nusxada (boshqa manbalarda oyiga tiraji uch yuz dona[12, B.49]) chop etilib, sahifalarida Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin singari o'zbek klassik adabiyoti namoyondalarining asarlari bilan birga G'afur G'ulom, Oybek, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Orif Usmon kabilarning asarlaridan namunalar berib borilgan.

“Yulduz” gazetasi bilan birga turkman tilida “Gurash” (“Kurash”) gazetasi (Bosha manbalarda dastlab, “Yulduz” gazetasining 1978-yilda Kobulda chiqqan to'rt-besh sonining to'rt sahfasi o'zbek, to'rt sahfasi esa turkman tilida bo'lib, Mozori-Sharifga ko'chirilgach turkman tilidagi sahfalari alohida “Gurash” nomi bilan chiqa boshlagan[12, B.48-49]) ham chop etilgan. “Yulduz” va “Gurash” gazetalari Afg'onistonning o'zbeklar yashaydigan 10 ta viloyatiga tarqatilgan[5, B.143-144].

90-yillarda ham bir qancha o'zbek tilidagi gazetalar nashr etildi. Jumladan, Afg'oniston Milliy Islomiy Harakati Oliy Kengashining matbuot organi “Islom ovozi” (“Nedoy-e Islom”) gazetasi 1992-yildan Mozori-Sharif shahrida nashr etila boshlagan; “Yo'l” (“Rox”) gazetasi Balx viloyati Yozuvchilar uyushmasi matbuot organi, 1995-yil mart oyidan Mozori-Sharif shahrida nashr etila boshlangan; “Muqaddas yer” (“Xaram”) kundalik gazetasi Afg'oniston Islomiy Birlik Partiyasi matbuot organi 1993-yildan Shibirg'on shahrida nashr etila boshlagan; “Tohariston” gazetasi Toliqonda, “Qunduz” gazetasi Qunduzda, “Bidar” (“Uyg'onish”) gazetasi Balxda nashr etilgan. Ularning har birining tiraji ming nusxdadan oshadi. Ularda Afg'onistonning shimoliy viloyatlaridagi o'zbek shoir va yozuvchilarining ijod namunalari muntazam bosilib chiqqan[21, B.22-23].

Turkiy tilli yoshlarning “Oydin” uyushmasi matbuot nashri “Oydin” jurnalni rangli tasviriy shaklda, asosan o'zbek tilida Kobul shahrida nashr etiladigan qirq betdan iborat jurnal hisoblanadi. Tiraji ming – ikki ming dona. Jurnalning Mozori-Sharif, Saripul, Tahor, Shibirg'on,

Maymana viloyatlari nashrlari ham mavjud-ki, bular Turkiyada tahsil olib kelgan yoshlar tashabbusi asosida nashr etilgan.

“Oydin-Afg'oniston” oylik gazetasi Kobulda o'zbek tilida nashr etilgan. Xususiy nashr bo'lib, tiraji ming dona hisoblangan.

“Bobur” jamg'armasining nashri hisoblangan “Ezgu tuyg'u” gazetasi 2000-yildan Shibirg'on shahrida nashr etila boshlagan. Ming dona tirajga ega, sakkiz sahifalik, o'zbek tilidagi gazeta edi.

“Gunash” jurnali turkman tilida bo'lib, har oyda nashr etilgan. Tiraji ikki ming dona bo'lган [12, B.49].

O'zbekistonda o'zbek filologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan yana bir afg'onistonlik talaba Muhammad Yasin Eldash ma'lumotlariga ko'ra, Shimoliy viloyatlar boshkenti sanalmish Mozori-Sharif shahri afg'on o'zbeklarining madaniy faoliyatlar markaziga aylangan. Mir Alisher Navoiy nomidagi madaniy anjuman bu shaharda qayta o'z faoliyatini boshlagan. Shimoliy viloyatlarda o'zbek tilida bosiladigan “Yog'du”, “To'g'ri yo'l”, “Quyosh” nomli yana bir qancha gazeta va jurnallar hamda fors tilida chiqadigan “Andisha” nashri o'z o'quvchilari qo'liga yetib borgan. Afg'onistonlik nufuzli o'zbeklardan Abdurashid Do'stim rahbarligida tuzilgan, a'zolari asosan o'zbeklardan iborat bo'lган, “Afg'oniston Milliy Islomiy Junbushi” harbiy-siyosiy partiyasining markaziy nashri “Nidoyi Islom” va “Armug'on” hamda “Faryob” va “Javzijonon” gazetalarida ham fors tilidagi nashrlar yonida o'zbek tilida yozilgan maqolalar va she'rlar ham nashr etilgan.

O'tgan asrning 70-yillari oxiridan ya'ni Aprel (Savr) voqealaridan keyin o'zbek tilida matbuotda maqola va she'rlar nashr etishdan tashqari, o'zbek tilidagi klassik adabiy asarlar va she'riy to'plamlardan iborat kitoblarni chop qilishga ham ruxsat berildi. Jumladan, dastlab Doktor Muhammad Ya'qub Vohidiy Juzjoniy tashabbusi bilan Sulton Husayn Boyqaro Devoni, Abdulg'affor Bayoniy bilan hamkorlikda Alisher Navoiyning “Xamsa”si hamda “Mahbub ul-qulub” asari nashr etildi. Shuningdek, Doktor Shafiqqa Yorqin tashabbusi bilan Zahiriddin Muhammad Boburning “Daryo dar gavhar” nomdagi Devoni, shoira Nodirabeginning “Nodira va uning she'rlari” to'plamlari bosib chiqarildi. Keyinroq, bir qator o'zbek mumtoz asarlari va she'rlar to'plamlari ham nashr etildi. Xususan, “Shajara tarokima”, “Muhabbatnoma”, “Mezon ul-avzon”, “O'zbek adabiyoti farhangi”, “Bobur manguligi”, “Shoirlar” tazkiralari va “O'zbek ijodkorlari” to'plamlari bosilib chiqdi [9].

Shu o'rinda afg'onistonlik folklorshunos olim Fayzulla Aymoq tomonidan Kobulda (1980-yil) keyinchalik Toshkentda (1986-yil) bosilib chiqqan “Xalq durdonalari” to'plamini alohida eslatib o'tish o'rinnlidir. Bu to'plamda Afg'oniston o'zbeklari orasida keng tarqalgan xalq qo'shiqlari, ertak va dostonlari, maqol va matallaridan namunalar berilgan [4, B.42].

Afg'oniston o'zbeklarida o'zbek tilining ahamiyatini oshirishda ommaviy axborot vositalarining roli ham muhim hisoblangan. O'zbekistonda xorijdagi o'zbeklar bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yishda muhojir o'zbeklar uchun radioeshittirishlar olib borgan “Vatandosh” radiostansiyasi tashkil etilgan edi. 1961-yilda ilk bor “Vatandosh” orqali o'zbekcha radioeshittirishlar berish boshlandi. Ushbu radioeshittirishlarda adabiyot, san'at, jonli muloqotlar va turli viktorinalar ko'rinishida turfa yo'nalishlar bo'yicha eshittirishlar berib borilgan. “Vatandosh” radioeshittirishlarini afg'on o'zbeklari ham katta qiziqish bilan tinglaganliklari tarixiy ma'lumotlardan ma'lum. Jumladan, radioeshittirish dasturlaridagi suhbat va muloqotlarda eng ko'p g'olib bo'lganlar ham aynan afg'onistonlik o'zbeklar

hisoblangan. Afg'onistonlik o'zbeklarning farzandlarida Zikrilloh Ishonch va Muhammad Karim Halimiylar "Vatandosh" radiostansiyasining doimiy muxbirlari bo'lishdi[16, B.38-54]. 1970-yil 2-oktabrda Afg'oniston radiosida o'zbek tili eshittirishlari boshlangan edi[17, B.130-138]. "Vatandosh" radiostansiyasiga 1990-yilda afg'on radiosи o'zbek eshittirishlar bo'limidan Muhammad Ilyosiy, Burxoniddin Nomiq kobi jurnalistlar va shoirlar kelib ikki oycha ishlab tajriba almashdilar. Ular Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi tarixiy shaharlarimizda ijodiy safarlarda bo'lib, o'z taassurotlarini "Vatandosh"da o'rtoqlashdilar. O'zbekistonlik shoir va yozuvchilar hamda san'at ustalari bilan muloqotda bo'lib, afg'on radiosи eshittirishlari uchun materiallar to'pladi[16, B.54-55].

Afg'oniston o'zbeklari ijtimoiy-madaniy hayotida o'zbek tilining ahamiyatini oshiruvchi yana bir omil bu televideniya hisoblanadi. Afg'onistonda o'zbek tilidagi televideniyalar mamlakatda 2001-yildan keyin yuz bergan ijobiy o'zgarishlar davridan boshlab, asosan xususiy televideniyalar tashkil etish orqali rivoj topdi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqotchisi afg'onistonlik Quvonch Ehsonullo XXI asr boshlarida ya'ni Afg'oniston Islom Respublikasi davrida mamlakatdagi televideniya, videomedialar va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining qo'llanilishi masalasini mufassal tahlil etgan. Jumladan, bu davrda Afg'onistonda o'zbek tilida 7 ta mahalliy va xalqaro telekanallar faoliyat olib borganini ko'rishimiz mumkin.

"Oyna" telekanali mamlakat bo'yicha birinchi xususiy telekanal bo'lib, Marshal Abdurashid Do'stressing tashabbusi va moliyaviy yordami bilan Sayid Anvar Sodod muharrirligida 2004-yildan Juzjon viloyatida faoliyat boshladi. Keyinchalik Azizulloh Aral bosh muharrirligida 2008-yildan Kobulga ko'chirildi va xalqaro telekanal sifatida barcha dasturlarni o'zbekcha uzatdi.

2014-yilda Marshal Do'stressing o'g'li Hoji Botur Do'stressing tashabbusi bilan Habib Quyosh bosh muharrirligida "Botur" nomli o'zbekcha yana bir xususiy telekanal ish boshladi. Ammo siyosiy sabablar tufayli faoliyati to'xtatildi.

"Birlik" telekanali 2013-yil Tahor viloyatida Muhammad Olim Soyi rahbarligida va Ramazon Botur bosh muharrirligida faoliyat olib bordi.

Mozori-Sharif shahrida Nazif Solihiy tashabbusi bilan Bismullah Muhammadiy bosh muharrirligida "Almos" telekanali o'zbek, turkman va dariy tillarida dasturlar berib borildi.

"Oylar" telekanali Mehrobuddin Sharifi moliyaviy ko'magi bilan Sadriddin Qunaviy bosh muharrirligida 2021-yil Tahor viloyatida ish boshlagan edi.

"Bek" telekanali Juzjon markazi Shibirg'onda dariy va o'zbek tillarida ko'rsatuvalar uzatildi.

"Oy" telekanali 2011-yil Kobulda Sabruddin Rahmoniy homiyligida Muhammad Olim Ko'hkan bosh muharrirligida tashkil etildi.

Ushbu telekanallardan tashqari "Oriyono", "Orizu", "Nurin", "Nur" va "Rahi Fardo" telekanallarida ham o'zbek bo'limlari ochilib, dariy va pashto tillaridagi dasturlar bilan birga o'zbekcha ko'rsatuvalar ham efirga uzatilgan.

Shuningdek, tadqiqotching fikriga ko'ra, Afg'oniston rasmiy hokimiyat tizimi, prezident matbuot bo'limidan tortib sud hokimiyatiga o'zbek tilidagi rasmiy matbuot bo'limlari tashkil etilgan edi[17, B.130-138]. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, 2020-yil 10-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni deb

belgilandi[18, B.4]. Qayd etilishicha, Afg'onistonda 21-oktabr – rasmiy jihatdan bayram kuni – O'zbek tili kuni deb e'lon qilingan[18, B.4].

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, dunyoning boshqa mintaqasi va mamlakatlariga nisbatan salmoqli qismni tashkil etuvchi Afg'onistondagi o'zbeklar milliy o'zligini saqlashning muhim sharti bo'lgan milliy tilni asrash, uni davlat darajasida qonuniy asoslantirib, xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida keng qo'llash til yashovchanligining muhim jihatni hisoblanadi. Yuqoridagi tahlil va ma'lumotlardan ko'ramizki, afg'on o'zbeklari milliy tilning nufuzi uchun doimiy kurashdi va ma'lum yutuqlarga erisha oldi. Jumladan, XX asrning 60-yillaridan boshlab, Afg'oniston o'zbeklari ijtimoiy faoliyat kuchayib, turli jamiyat va uyushmalarga birlashish jarayoni boshladi. 1978-yil aprel (savr) voqealaridan so'ng o'zbek tilidagi gazeta va jurnallar, radioeshittirishlar, televideniyalar, o'zbek jamiyatlari faoliyat yurita boshlagan bo'lsa, XXI asr boshlarida Afg'onistonda rasmiy til sifatida yangi Konstitutsiyada o'z ifodasini topdi.

Adabiyotlar//Литература/References:

1. Хашимбеков Х. Узбеки Северного Афганистана. – М., Институт востоковедения РАН, 1994. – 56 с.
2. Alimova X. Afg'oniston Konstitutsiyalarida davlat tili maqomi. // O'zbek sharqshunosligi: buguni va ertasi (Ilmiy maqolalar to'plami). – Toshkent, 2020. – B. 22-29.
3. Ismoilov A., Toshqin A. Afg'onistondagi turkiy tillar vaziyatiga doir // "Sharq mash'ali" jurnali, 2005-yil, № 1. B.12-16.
4. Mannonov A. Afg'oniston xalqlari folklori va mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2001. – 152 b.
5. Hayitov Sh.A. O'zbek muhajirligi tarixi (1917-1991 yy.). – Toshkent, "ABU MATBUOT KONSALT". – 2008. – 208 b.
6. Muhammad Humayun Nadim. Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari etnografik leksikasi o'ziga xosligini belgilovchi omillar. // "So'z san'ati" xalqaro jurnali, 2021-yil, № 3, B. 107-113.
7. Ingeborg Baldauf (Berlin, Humboldt universiteti). Shimoliy Afg'oniston o'zbeklarining tili, joylashuvi va o'xshashligi. (Nemis tilidan G'.Xo'jayev va A.Ahmedov tarjimasi) // QarDU xabarlari, № 1 (23) 2015, B. – 66-79.
8. Hayitov Sh.A., Badriddinov S. Vatan deya vatansiz qolganlar qismati. – Buxoro, "Buxoro" nashriyoti, 2005. – 159 b.
9. Muhammad Yasin Eldash. Afg'onistonda o'zbek tili va adabiyotining o'tmishi va bugungi ahvoli // <http://eldash123.blogfa.com/post/2>
10. O'zMA. R-2661- fond, 1-ro'yxat, 302-yig'ma jild, 3,4-varoq.
11. O'zMA. R-2822- fond, 1-ro'yxat, 73-yig'ma jild, 6,7-varoq.
12. Nazarov N. Afg'oniston o'zbeklari. – Toshkent, 2011. – 127 b.
13. O'zMA. R-2822- fond, 1-ro'yxat, 4-yig'ma jild, 44-varoq.
14. Omidullah Bayani. Study of uzbek language's part of speech in Afghanistan (Afg'onistonda o'zbek tili so'z turkumlarining o'r ganilishi). // Eurasian journal of academic research. Innovative Academy Research Support Center. Volume 1 | ISSUE 01| ISSN 2181-2020, April 2021: P. 200-205. www.innacademy.uz. <https://doi.org/10.5281/zenodo.4711213>.

15. Nurulloh Oltoy. Afg'onistonda o'zbek adabiy tili muammolari. // "Guluston" jurnali, 2014. № 5, B. 22-28.
16. Hayitov Sh.A., Badriddinov S. O'zbekiston – bizga ham Vatan.... – Buxoro, "Buxoro" nashriyoti, 2006. – 156 b.
17. Ehsonullo Quvonch. O'zbek tilining Afg'onistondagi video medialar va ijtimoiy tarmoqlarda qo'llanilishi. O'zA ilmiy-elektron jurnali, 2022-yil, № 10 (36), B. 130-138.
18. Karimov D. Ona tilimizning hayotbaxsh qudrati // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 22-oktabr, № 223 (7725), B. 4.
19. Afg'onistonda O'zbek tili kuniga bag'ishlangan bayram tadbirlari birinchi marta davlat miqyosida nishonlandi. // <https://daryo.uz/2020/10/21/afgonistonda-ozbek-tili-kuniga-bagishlangan-bayram-tadbirlari-birinchi-marta-davlat-miqyosida-nishonlandi/>, 21.10.2020
20. Шарипов У.З., Хашимбеков Х. Исторический и современный аспекты социального и политического положения афганских узбеков. // Афганистан-2010. Политические и экономические реалии современного Афганистана в условиях геостратегической экспансии Запада (сборник статей). – Москва, 2010. С. 103-146.
21. Лалетин Ю.П. Ресурсный потенциал Северного Афганистана, консолидация этнических меньшинств и укрепление элит в этом регионе. – Москва, 2000. – 43 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 12/1 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
мастъалияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).